



ALEKSANDR FAYNBERG IJODIDA SHAHAR, TABIAT VA FALSAFIY QARASHLAR TAHLILI HAMDA SHOIR ADABIY MEROSINING YOSHLAR TAFAKKURIGA TA'SIRI

Abdishukurova Jasmina Dilshod qizi

jasminaabdishukurova2108gmail.com

Xorijiy til va adabiyot fakulteti,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

Toshkent, O'zbekiston.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18981511>

ARTICLE INFO

Received: 1st March 2026

Accepted: 5th March 2026

Published: 12th March 2026

KEYWORDS

ABSTRACT

Aleksandr Faynberg (1939–2009) XX asrning mashhur shoirlaridan biri bo'lib, uning ijodi o'z davrining va zamonaviy Toshkentning ruhini she'riy ifodada mujassamlashtiradi (Mirag'zamova, 2025). Shoirning asarlari nafaqat shahar manzaralarini, balki inson ruhining murakkab qatlamlarini ham aks ettiradi. Faynberg she'riyati tabiat va shahar, insoniylik va falsafiy mushohadalarni uyg'unlashtirgan noyob adabiy meros hisoblanadi. Aleksandr Faynberg o'zining farqli uslubi orqali tabiat va insoniy kechinmalarni she'rlarida tasvirlab bergan iste'dodli shoirdir (Saparbayeva, 2025). Ushbu maqolada Faynberg she'riyatidagi shahar motivlari, insoniy va falsafiy qatlamlar, shuningdek, uning ijodining bugungi yoshlar tafakkuridagi o'rni ilmiy tahlil qilinadi.

Shoir ijodida shahar manzaralari va urban poetika asosiy rol ni o'ynaydi. Faynbergning she'riyati Toshkentning turli manzaralarini tasvirlashdan boshlanadi. Uning Oy manzarasi she'rida shahar tungi ko'rinishi inson ruhiyati bilan uyg'unlashadi va o'quvchida tinchlik, jimjitlik hissini uyg'otadi (Shukhratbekova, 2025). Shoir ko'chalar, xiyobonlar, bog'lar va hatto oddiy ammo milliy choyxonalarni tasvirlash orqali nafaqat tashqi muhitni, balki inson ichki olamining murakkab qirralarini ham ochib beradi. Urban poetika orqali Faynberg shaharni faqat fon emas, balki inson va jamiyat ruhiy holatini aks ettiradigan faol element sifatida ishlatadi.

Tabiat va inson hissiyotlari shoir she'rlarining yana bir muhim jihatlaridan biridir. Faynberg ijodida tabiatning tasviri ko'pincha inson ruhining ichki holatini aks ettirish vositasi sifatida ishlatiladi. Masalan, quyosh botishi, oy nuri yoki shahardagi yomg'ir parchalari insoniy his-tuyg'ular, iztirob, ayriliq va umid bilan bog'lanadi (Nurmaxmatova, 2025). Shoirning metaforalari va epitendlari uning she'riyatida falsafiy qatlamni yaratadi va o'quvchini chuqur tafakkurga chorlaydi. Shunday qilib, tabiat va shahar obrazlari bir-birini to'ldiradi va inson ruhining murakkab qirralarini ochib beradi.

Aleksandr Faynberg asarlarida falsafiy qatlamlar va insoniylik tushunchasi ham yaqqol ko'rinish beradi. Faynberg ijodining markazida insoniylik va falsafiy mushohadalar turadi, ammo tushunish uchun o'ta murakkab obrazlar yaratilmaydi. U hayotiy voqealarni she'riy

tarzda ifodalash orqali o'quvchini nafaqat his qilish, balki o'ylashga ham chorlaydi (Bazarov & Yuldosheva, 2025). Shoirning iqtiboslari va she'rlari inson hayoti, vaqtning o'tishi, insoniy qadriyatlar va jamiyat bilan bog'liqlikni aks ettiradi. Misol uchun, Hayotning jimjit tonglari she'rida shoir inson va tabiatning uyg'unligi, ichki tinchlik va ruhiy boylikni tasvirlaydi.

Shubhasiz, Faynberg she'riyatining zamonaviy yoshlar hayotidagi o'rni katta. Shoir she'riyatini zamonaviy yoshlar uchun o'qish va tahlil qilish, tafakkur yuritishga va anglashga undaydi. Ular uning asarlari orqali shahar va tabiat, insoniylik va falsafiy tushunchalarni tushunib, tafakkur va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Shoirning ijodi yoshlarni madaniy merosga, estetik qadriyatlarga qiziqtiradi va ijtimoiy tafakkurini kengaytiradi. Shu bilan birga, Faynberg she'riyatining o'quvchilar ongida uyg'otadigan hissiy va estetik ta'siri ularni ijodiy fikrlashga, shahar va jamiyatni yanada chuqur tushunishga yordam beradi. Shu boisdan, hozirgi kunda shoir adabiy merosini abadiylashtirish hamda yoshlarga yetkazish maqsadida targ'ibot va ijodiy loyihalar olib borilmoqda.

Xulosa

Aleksandr Faynberg she'riyatida shahar va inson ruhiyati uyg'unligi, falsafiy qatlamlar va insoniy hissiyotlar birlashib, uni zamonaviy yoshlar uchun muhim adabiy merosga aylantiradi (Mirag'zamova, 2025; Bazarov & Yuldosheva, 2025). Uning yozgan she'rlarini tahlil qilish yoshlarni o'sha davr dolzarb masalalarini anglashga va shoir ijodining ildiz mohiyatini anglashga yordam beradi. Yoshlar nafaqat adabiy jihatdan, balki ma'naviy bilim va ko'nikmalarni Faynberg ijodi orqali olishi va hayotga tadbqiq etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bazarov, I. R., & Yuldosheva, E. A. (2025). Hopefulness in the poetry of Alexander Faynberg. *International Journal of Integrated Sciences*, 1(1).
2. Faynberg, A. (1985/1999). *Selected poems*. Toshkent: Sharq nashriyoti.
3. Mirag'zamova, O. M. (2025). Alexander Faynberg: A bridge between two cultures through bilingual poetry. *Ustozlar Uchun*, 66(2), 90–95.
4. Nurmaxmatova, F. R. (2025). Aleksandr Faynberg she'rlarida tabiat obrazlari va ramzlari. *Tadqiqotlar*, 72(1), 135–136.
5. Shukhratbekova, Z. (2025). Aleksandr Faynberg's role in Uzbek literature. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(1), 102–104.